

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTI YETISHTIRISHDA ZARARLI ORGANIZMLARNING MINIMAL TA'SIRI VA EKOTIZIMGA SALBIY TA'SIRNI KAMAYTIRISH

Davlatova Mehribon Turg'unpo'lat qizi

Farg'ona davlat universiteti magistri

mehribondavlatova@512gmail.com

ANNOTATSIYA: *Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zararli organizmlar (ZO) bilan kurashish ko'plab ekologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayonning asosiy maqsadi – mahsulotni zararli organizmlardan himoya qilish, lekin shu bilan birga ekologik muvozanatni saqlash zarur. Ushbu ishda qishloq xo'jaligi ekotizimiga salbiy ta'sirni kamaytirish va zararli organizmlarga minimal ta'sir ko'rsatish uchun samarali yondoshuvlar tahlil qilinadi. Kimyoviy preparatlar o'rniga biologik va agrotexnik vositalardan foydalanish, shuningdek, ekotizimni qo'llab-quvvatlovchi usullarni joriy etish zarurati ko'rsatiladi. Ushbu tadqiqotda, ekotizimga salbiy ta'sirni kamaytirishning samarali strategiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Natijada, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi, zararli organizmlar, ekotizim, ekologik muvozanat, biologik kurash, agrotexnika, kimyoviy preparatlar, barqaror ishlab chiqarish, ekologik ta'sir, himoya usullari.*

ANNOTATION: *Fighting harmful organisms (ZOS) in agricultural production can cause many environmental and economic problems. The main goal of this process is to protect the product from harmful organisms, but at the same time maintain an ecological balance. This work analyzes effective approaches to reduce the negative impact on the agricultural ecosystem and minimally impact on harmful organisms. The use of biological and agrotechnical agents in place of chemical preparations is indicated, as well as the need to introduce methods that support the ecosystem. This study examines effective strategies to reduce negative impacts on the ecosystem and their practical applications. As a result, solutions are proposed that serve to ensure the sustainability of agricultural production.*

Keywords: *agriculture, harmful organisms, ecosystem, ecological balance, biological struggle*

АННОТАЦИЯ: *Борьба с вредными организмами (ЗО) при выращивании сельскохозяйственных культур может вызвать множество экологических и экономических проблем. Основная цель этого процесса-защитить продукт от*

вредных организмов, но в то же время необходимо поддерживать экологический баланс. В этой работе будут проанализированы эффективные подходы к снижению негативного воздействия на сельскохозяйственную экосистему и минимальному воздействию на вредные организмы. Указывается на необходимость использования биологических и агротехнических средств вместо химических препаратов, а также внедрения методов, поддерживающих экосистему. В настоящем исследовании будут рассмотрены эффективные стратегии снижения негативного воздействия на экосистему и их практическое применение. В результате предлагаются решения, которые служат для обеспечения устойчивости сельскохозяйственного производства.

Ключевые слова: сельское хозяйство, вредные организмы, экосистема, экологический баланс, биологическая борьба

KIRISH

Mustaqillik yillarida respublikada qishloq xo'jaligi sohasiga bozor tamoyillarini joriy qilish va mulkchilik shakllarini to'liq o'zgartirish bilan tub islohotlar o'tkazildi, natijada xo'jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo'lib, ular qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlanishida o'z aksini topdi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jaligini strategik rivojlantirish doirasida o'tkazilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, so'nggi yillarda sohada yuqori sur'atlarga erishildi.

Iqtisodiy islohatlarning butun zanjirida agrar sohadagi uzgarishlarga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholining aksariyati qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar-sanoat tarzida ekanligi hamda xayotiy muhim muammolarni hal qilishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rnini bilan bog'liq. Hozir iqtisodiyotning Ayni agrar sohasi katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanib, aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan taminlashni yaxshilabgina qolmay, Respublika qishloq aholisining turmushini farovon qilish ham mumkin. Qishloq xo'jaligida o'zgarishlar demokratik usullar bilan, avvalo, dehqonchilik sohasidagi mavjud ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tubdan uzgartirish hisobiga amalga oshiriladi. Mehnatni tashkil etishning dehqon uchun tushunarli va foydali bo'lgan shakllarini tiklash zarur. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermiqda. Masalan, 2017 yil yakunida 96 ming gektar hosildorligi past maydonlarda paxta va g'alla o'rniga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko'katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar

eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog' va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi. Qishloq xo'jaligi sohasida erishayotgan yutuq va natijalarimiz haqida yana ko'p gapirishimiz mumkin. Lekin yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish, xotirjamlikka berilish bizga yarashmaydi. Chunki qishloq xo'jaligi sohasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham juda ko'pligini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonni 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganimiz sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligini joylashtirish mehnatning ijtimoiy bo'linishi, geografik (hududiy) bo'linishining bir shakli bo'lib, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladi. Umumiy ko'rinishda u o'zida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha ma'lum tamoyillar asosida va qator omillar ta'sirida shakllangan tabiiy, ijtimoiy, demografik, siyosiy sharoitlarga ko'ra taqsimlanishini ko'rsatadi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, e'tibor bering tayyor mahsulot eksport qilindi. 724 ming tonna ho'l meva chetga sotildi va bu yurtimizga 856 million dollar valyuta keltirdi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish bu alohida mahsulotlar ishlab chiqarishni mamlakatning viloyat, tuman va boshqa hududlari bo'ylab taqsimlash bo'lib, jarayon uzoq davom etuvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ko'ra o'zgaruvchandir. Qishloq xo'jaligining eng to'liq joylashtirilishi ushbu hududda ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda u yoki bu turdagi yalpi va Tovar mahsulotlarining umumiy hajmidagi alohida hududlarning hissasi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi.

Iqtisodiy islohatlar jaraynida, mulk munosabatlari tubdan o'zgartirilib, hamma qayta tuzilmalar xususiy xarakterga ega bo'lgan bir sharoitga keltirmay, mos ravishda ijtimoiy

mehnat taqsimoti amalaga oshirilmasa, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'tarilmaydi va qishloq xo'jaligi oldida qo'yilgan ulkan vazifalar to'liq bajarilmaydi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish- bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida mamlakat tumanlarining tabiiy-iqtisodiy va ekologik omillarini hisobga olgan holda, ularda u yoki bu turdagi qishloq xo'jalik ekinini yoki chorva mollari turini hamda ularga ko'rsatiladigan xizmatni mos holda joylashtirishdir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotini miqdor tomondan ko'rsatib, mamlakat hududlarila joylashgan har bir xo'jalik, tuman, viloyat, qaysi turdagi qishloq xo'jalik ekinlarini ekishini, chorva mollar turini saqlashni va ularga mos bo'lgan xizmatni ko'rsatishini aniqlab beradi.

Ixtisoslashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim shartidir. U bozor iqtisodiyotining mehnat taqsimoti qonuni, mehnat unumdorligini o'sib borishi, mehnat turlarining o'rin almashinuvi kabi umum iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqadi. Ixtisoslashtirish mehnat unumdorligini, xo'jalikning rentabelligi va daromadini keskin oshirishiga xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirish bozor uchun eng zarur iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tovar mahsulotlarini yetishtirish va xizmat turlarini ko'rsatish uchun mehnat va moddiy resurlarning bir joyga to'plashni, yangi texnikadan keng va samarali foydalanishga: yangi, ilg'or texnologiya va mehnatni tashkil etishni ijara munosabatlari va oila pudrati usullarini joriy etishga qulay sharoit yaratib, yetishtiriladigan mahsulot miqdorini va xizmat turini anchagina ko'paytirish imkonini beradi, mehnat unumdorligini oshiradi, xo'jaliklarning ishlab chiqarish samaradorligini ko'taradi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish korxonalar oldida turgan asosiy vazifalarni to'liq bajarilishi ya'ni, ishlab chiqarishga ilg'or, ekologik toza agrotexnika, zooveterinariya, texnikaviy xizmat, organik va mineral o'g'itlar hamda o'simliklarni va chorvani himoya qilish vositalarini, fan yutuqlari, ilg'orlar ish tajribasini joriy etib, ulardan unumli foydalanib, mehnat va mablag'larni kam sarflagan holda qishloq xo'jaligiga yaroqli har bir gektar yer va shartli bosh mol hisobiga dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini mumkin qadar tez va barqaror ko'paytirishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish bo'yicha ish olib borganda quyidagi tamoyillarga qat'iy amal qilish lozim:

- ixtisoslashtirish va joylashtirishda muntazmlik va barqarorlik;
- xo'jalik iqtisodini va ishlab chiqarish tuzilmalarini hisobga olgan holda, tashkiliy mulk shaklini va ishlab chiqarish yo'nalishini tanlashga ilmiy yondashish;
- korxonalarning bir-biri bilan ixtiyoriy hamkorlik va iqtisodiy mustaqilligini saqlash;

-korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni tashkil qilishda, ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshirishda va mehnat resurslaridan foydalanishda demokratik tamoyillarga amal qilish;

-ish bajaruvchilarning mehnat unumdorligini o'stirganligi uchun moddiy manfaatdorligini ta'minlash;

Qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirishga quyidagi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi:

-bozor talabini hisobga olish;

-ishlab chiqarish resurslaridan unumli va to'la foydalanish;

-ishlab chiqarishni iste'molchilarga yaqinlashtirish;

-har bir iqtisodiy tumanni o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini hisobiga, o'z talabini qondirish;

-respublika, viloyat va tumanlarida mehnat taqsimotini hisobga olish va mehnat bozorini tashkil etish.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirishda quyidagi omillarga e'tiborini berish lozim:

-yirik sanoat markazlari va shaharlar talabini hisobga olish;

-qishloq xo'jalik mahsulotlari xarakteriga, tez buzilish, tashish qiyinchiligi, transport harakati va hokazolarga;

-mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xom ashyo xarakteriga sut, qatiq, yog'va boshqa mahsulotlar yetishtirish uchun oziqani chorva mollariga yaqinlashtirishga;

-transport vositalari hamda yo'llar holatiga;

-mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va sotuvchi korxonalarni joylashishiga va rivojlanish darajasiga;

-mintaqa aholisi, uning mehnatga yaroqli qismi, mehnat malakasi, kabi va bo'sh ish o'rinlarining mavjudligiga.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tuproq va iqlim sharoiti bilan uzviy bog'likligi undagi mehnat taqsimotini geografik jihatidan taqsimlanish zaruriyatini keltirib chiqaradi va bu xususiyat uning joylashishida o'z ifodasini topadi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish uni ixtisoslashishi bilan uzviy bog'liqdir. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishdan oldin hudud va xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoiti sinchiklab hisob kitob qilinadi va so'ng qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ratsional joylashuvi ta'minlanadi.

Ixtisoslashtirish-ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli bo'lib, u har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy qonunlari ta'sirida vujudga keladi.

Mehnat taqsimoti ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ro'y berib, ishlab chiqarish kuchlarining darajasini aks ettiradi. Shuning uchun ixtisoslashtirish o'zgarishlarga boy jarayon bo'lib, tinimsiz rivojlanadi va takomillashadi.

Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish deganda - mamlakatning ayrim iqtisodiy hududlari, tuman va ayrim xo'jaliklarini u yoki bu mahsulot turini ko'plab yetishtirish uchun moslashuvi tushuniladi. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish kompleks mexanizatsiya, tarmoqlarni intensiv texnologiya asosida olib borish, mehnatni tashkil qilishni progressiv shakl va uslublarini joriy etish, ishchilarning malakasini oshirish va mehnat unumdorligini o'sishiga, mehnat vositalari va buyumlaridan ratsional foydalanish sharoitlarini yaratishga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ixtisoslashtirish darajasini chuqurlashishi jarayonida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi takomillashadi va bu o'zgarishlar undagi tarmoqlar bilan bir qatorda butun qishloq xo'jaligini iqtisodiy samaradorligini oshishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligini iqtisodiy asoslangan joylashtirish va ixtisoslashtirish ma'lum darajadagi qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi:

Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish mamlakatning ayrim hududlari, viloyat, tuman, xo'jalik va ularning bo'limlari miqyosida amalga oshiriladi. Shu boisdan ixtisoslashishning quyidagi shakllari mavjuddir:

- 1) Zonalar bo'yicha ixtisoslashish,
- 2) Xo'jaliklararo ixtisoslashish,
- 3) Xo'jalik ichidagi ixtisoslashish.
- 4) Tarmoq ichidagi ixtisoslashish

Zonalar bo'yicha ixtisoslashish- bu mamlakat viloyat va qishloq xo'jaligi hududlari va boshqa shu kabi ma'lum territorial birliklarni ixtisoslashishidir.

Xo'jaliklararo ixtisoslashtirish deganda xo'jalik va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini ma'lum qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishga moslashishi tushuniladi.

Xo'jalik ichidagi ixtisoslashtirish - bu xo'jalik ichki bo'linmalarida, kichik jamoa guruhlarini, fermalarni ma'lum qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashishi tushuniladi.

Tarmoqlar ichidagi ixtisoslashtirish deganda xo'jaliklar va ularning bo'linmalarini pirovard mahsulot ishlab chiqarishni texnologik bosqichlar bo'yicha moslanishiga aytiladi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlari, o'zicha alohida bo'lgan xo'jaliklar va ularning bo'linmalari o'rtasida farqlanadi. Bu turdagi ixtisoslashish hozirda ayniqsa parrandachilikda, sut va go'sht qoramolchiligida keng tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Karimov I.A.(Birinchi Prezidentimiz) O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston. 1995
- 2 N.R.Yusupbekov, D.P.Muxitdinov. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2015, 440 bet.
- 3 O'zbekiston Respublikasining "Ferma xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni.2019 yil 30 aprel.
- 4 O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonuni.2018 yil 30 aprel.
- 5 O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 2018

